

Khan Academy O'zbek

MOLIYAVIY HISOBOT

Noyabr, 2020

Aziz do'stlar!

Siz Khan Academy O'zbek jamoasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha o'n yettinchi moliyaviy hisobotni o'qiyapsiz. Bizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizdan juda minnatdormiz va ishimizni yanada shaffof qilish uchun har oyda rasmiy matbuot hisobotini nashr etib boramiz.


Sizning yordamingiz va sarmoyalaringiz tufayli biz, Khan Academy O'zbek tashabbuskor jamoasi, maqsadimizga yanada yaqinlashamiz va dunyoga mashhur Khan Academy bepul onlayn ta'lim platformasini mahalliyashtirish loyahasini amalga oshirish uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilamiz.

To'plangan barcha mablag'lar loyihani rivojlantirishga yo'naltiriladi.


2020-yil noyabr oyida loyihaga 245 590 685 so'm xayriya qilindi va 66 708 638 so'm sarflandi. Mazkur oyda qilingan xarajatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Xarajatlar ro'yxati	summa so'mda
Ma'muriy xarajatlar	-8 027 200
Bank xarajatlari	-211 827
Tarjima	-2 103 200
Tahrir	-11 919 600
Video	-24 649 680
Ijara haqi	-10 000 000
Fandreyzing (mablag yig'ish)	-501 600
Tamirlash va texnik xarajatlar	0
Marketing	0
Aloqa xarajatlari (internet, telefon)	-1 600 000
Soliqlar	-7 172 230
Boshqa xarajatlar	-523 301
Jami	-66 708 638

Xarajatlar foizi quyidagi aylana diagrammada aks etgan:



Noyabr oyida xarajatlarning 58 foizi (38 672 480 so'm) kontentni yaratishga, ya'ni matnli materiallarni tarjima qilish, ularni tahrir qilish va video darslarni yaratishga sarflandi:



Bugungi kungacha loyihaga 1 973 464 109 so'm va 76 595 AQSH dollari xayriya qilindi, 2 173 058 206 so'm sarflandi.

- Matnni tarjima qilish jarayonini [bu yerda](#) ko'rish mumkin.
- Videodarslarni yaratish jarayonini [bu yerda](#) ko'rish mumkin.
- Tayyor videodarslar [YouTube](#) kanalimizga joylashtirilgan.
- Videodarslarning Telegram'dagi kanallari [bu yerda](#).

Vebsayt — <https://xanakademiya.uz>

Telegram kanal — <https://t.me/khanacademyuzbek>

Facebook sahifa — <https://www.facebook.com/KhanAcademyUzbek>

Instagram sahifa — <https://www.instagram.com/khanacademyuzbek>